

OLIY TA'LIM MUASSASASI PEDAGOGLARINING GENDER TENGLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Samarqand davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Roziqova Gulchehra Hazratqulovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar o'rtasida gender tengligini ta'minlashning nazariy asoslari, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo'llari yoritilgan. Gender tengligini ta'minlash nafaqat ijtimoiy adolat mezonini, balki sifatli ta'lim muhitini shakllantirish omili sifatida ko'rib chiqiladi.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы обеспечения гендерного равенства среди преподавателей высших учебных заведений, существующие проблемы и пути их решения. Обеспечение гендерного равенства рассматривается не только как критерий социальной справедливости, но и как фактор создания качественной образовательной среды.

Abstract: This article discusses the theoretical foundations of ensuring gender equality among teachers working in higher education institutions, existing problems and ways to solve them. Ensuring gender equality is considered not only a criterion of social justice, but also a factor in creating a quality educational environment.

Kalit so'zlar: tengligi, oliy ta'lim, pedagog, ijtimoiy adolat, kasbiy rivojlanish, diskriminatsiya, nazariy asoslar.

Ключевые слова: равенство, высшее образование, педагог, социальная справедливость, профессиональное развитие, дискриминация, теоретические основы.

Keywords: equality, higher education, pedagogue, social justice, professional development, discrimination, theoretical foundations.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog‘liq amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida o‘zbek tilida so‘zlagan nutqida O‘zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsatib, gender masalasiga alohida to‘xtalib o‘tdi. Jumladan, “Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni tobora kuchaymoqda. Bugungi kunda gender tengligi masalasi global darajada dolzarb mavzulardan biri sanaladi. Xususan, oliy ta’lim tizimida pedagoglar o‘rtasidagi gender tengligini ta’minlash, ularning mehnat faoliyatida teng sharoitlar yaratish masalasi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Gender tengligi nafaqat erkak va ayol pedagoglar o‘rtasidagi teng huquqlilikni nazarda tutadi, balki ularning kasbiy rivojlanishi, ijtimoiy himoyasi, rahbarlik lavozimlariga erkin kirish imkoniyatlariga ham tegishlidir. Bugungi kunda gender munosabatlar pedagogikasi, gender munosabatlarning nazariyasi va amaliyoti, zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida ta’lim oluvchilarda gender madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari kabi muammolar o‘z echimini kutmoqda. Tarbiyaviy jarayonlarni gender yondashuv asosida tashkil etish

O‘zbekiston davlati va jamiyatining ijtimoiy buyurtmasi hosblanadi. Shunday ekan ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish ham alohida dolzarblik kasb etmoqda. Gender – xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayotiva faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi. Gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida,shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan, sportmunosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi.

So‘nggi 10 yilda mehnat qilayotgan ayollar soni chorak milliardga ko‘paygan bo‘lishiga qaramaay, mavjud muammolarni to‘laligicha bartaraf etish uchun kamida 170 yil kerak bo‘lishi aytiladi. Tadqiqotda xotin-qizlar uyda bajaradigan kundalik yumushlar ham inobatga olingan. Shunga qaramay, erkaklar haq to‘lanadigan ishning 39 foizinigina bajarishlari oydinlashdi. Ayrim mamlakatlarda, jumladan, Hindiston, Portugaliya va Estoniyada xotin-qizlar bir yilda erkaklar bilan solishtirganda 50 kun ko‘p ishlashi ma’lum bo‘ldi. Biroq buni teskarisi kuzatiladigan mamlakatlar ham bor. Masalan, Yaponiya va Niderlandiyada ayollarning uyda ishlashlari inobatga olingan taqdirda ham erkaklar 30 daqiqa ulardan ko‘proq ishlar ekan. Buyuk Britaniyadagi moliviy tadqiqotlar Instituti e’lon qilgan hisobotga qaraganda, erkaklar ayollarga nisbatan ko‘proq maosh olar ekan. Biroq bu raqamlarga shubha bilan qarovchilar ham bor.

Foydalangan adabiyotlar;

1. Haydarbek Bobobekov, “Fan va texnologiya” nashriyoti. – Toshkent, 2014. – B. 196. 13. Alisher
2. Navoiy. “Mahbub ul-qulub” (Qalblarga mahbub hikmatlar va hikoyatlar). Hozirgi o‘zbek tiliga tabdil. – Toshkent: “Sano-standart”, 2018.
3. Abu Nasr Forobiy 2. “Fozil odamlar shahri”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”. 2016. – 320 b. 12. Temur tuzuklari tarjimon
4. Haydarbek Bobobekov], “Fan va texnologiya” nashriyoti. – Toshkent, 2014. – B. 196.
5. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Maqolalar to‘plami – Toshkent, 2007.